

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI QO‘LLASH USULLARI

Sharipova Nilufar Mavlonovna

Guliston davlat univertiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Yangi pedagogik texnologiyaga o‘tishda o‘qituvchilar bu boradagi o‘z malakalarini muntazam oshirib borishlari, auditoriyalarini davr talablari darajasida jihozlashlari, kutubxonalarini tashkil etishlari, o‘qitayotgan fanlarining bo‘limlari bo‘yicha namuna sifatida paketlar tuzishlari, o‘quvchilarga mustaqil, izlanib puxta bilim olishni o‘rgatishlari, dars davomida aktyor sifatida emas, balki rejissor kabi ishtirok etib, o‘quvchilarning faoliyatlarini kuzatib, nazorat qilib borishlari lozim va hokazo.

Kalit so‘zlar: Yangi pedagogik texnologiya, auditoriya, talaba, ,mustaqil mashg‘ulot, kutubxona, dars o‘tish metodi.

Mashg‘ulotning maqsadi – kurs ishtirokchilariga yangi pedagogik texnologiyalar haqida kengroq ma’lumot berish, bu sohada ular oldida turgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berish.

Yangi pedagogik texnologiya nima? Yangi pedagogik texnologiya - yangicha ta’lim berish ekanligi. Unda o‘quvchilarning mustaqil bilim olishga o‘rgatilishi.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalliklari. O‘quvchilarning erkin holda ishlashga, fikrlashga, xulosa chiqarishga o‘rganishlari. Ularda jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatish, bahs, munozara yuritish, o‘z fikriga ega bo‘lish kabi xislatlarning tezroq rivojlantirilishi.

Yangi pedagogik texnologiyaga "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilanishicha, bu dasturning III bosqichi, ya’ni 2005-yildan boshlab o‘tila borilishi. I bosqichda Yangi pedagogik texnologiyani o‘rganish, tushunish. II bosqichda tayyorgarlik ko‘rish, kerakli o‘quv jihozlarini ishlab chiqish, tayyorlash, nashr etish.

Birinchi o‘rinda, ta’lim muassasalarini, sinfxonalarini milliy dastur talablari asosida jihozlash (Davlat ramzlari, buyuk siymolar, yangi alifbo, “Sog‘lom avlod”, matematika, ona tili fanlaridan, tabiat fasllari, mehnat, ertaklar olamida, “Bolalar yozuvchilari” kabi ko‘rgazmali taxtalar bo‘lishi).

Kutubxonalarini tashkil etish. Uni qiziqarli, rangli rasmlil badiiy kitoblar bilan boyitish. Kiyim materiallarini ishlab chiqarish jarayonlari fanidan turli tadbirlar uyushtirish. Talabalarning ishlab chiqarish korxonalarini bilan uchrashuvlar o‘tkazish.

Yangi pedagogik texnologiyaga o‘tilgandan so‘ng ta’lim jarayonida har bir mavzu yoki bo‘lim yuzasidan tuzilgan paketlar, topshiriqlar to‘plamlari bilan darslar o‘tkazilishi. Ularning tuzilishi, mazmuni, maqsadi. Ulardan foydalanish tartib va usullari.

Dars o‘tish tartibi. O‘quv yilining boshida (10-20 kun) paketlar bilan yil davomida qanday ishlash, unda berilgan topshiriqlarni paketdan olingan qo‘llanmalar va kutubxonalardan va internet sayitlarida foydalanib, bajarish. Shundan so‘ng yozma ravishda yoki kompyuterda topshirish, reyting tizimi asosida baholashlar qanday amalga oshirilishining tushuntirilishi.

Oliy ta’lim tizimini isloh qilish borasidagi davlat hujjatlari asosida yaratilgan Davlat ta’lim standartlari (1999) va boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi sohasiga birinchi darajali e‘tibor qaratilgan.

Ta’limdagi barcha yangiliklarni amalga oshirishda, jahon andozalariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish orqali erishish belgilab berilgan. Ana shu talablarni hisobga olib, quyida oliy ta’limda auditoriyadan tashqari mustaqil mashg‘ulotlarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib, o‘quvchilarni mustaqil, erkin ta’lim-tarbiya olishga o‘rgatish hamda ularning “shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish” borasida fikr yuritishga qaror qildik.

Auditoriyadan tashqari mustaqil mashg‘ulotlarining ikkinchi qismida esa kutubxonalardan o‘qilgan mutaxassislik adabiyotlaridan paketlar yordamida muhokama etiladi;

Yangi kitob (1-kursda 1 ta, qolgan kurslarda 2 ta va undan ortiq), uning muallifi bilan tanishtiriladi;

Mashg‘ulotga yakun yasab, kelgusi mashg‘ulotga nimalarni o‘qib, tayyorlab kelish tushuntiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Sharipova, N., Sherqulova, N., Isayeva, R., Islamova, R., & Abdukadirova, M. (2024). RESEARCH OF THE PROCESS OF ENRICHMENT OF NATURAL SILK FIBER AND NITROINE FIBERS MATERIALS. Modern Science and Research, 3(2).

Yangiboyev, I., Kasimov, A., Shodiyev, D., & Panjiyev, O. (2024). IMPACT OF FIBER WASTE ON THE ECOLOGY. Modern Science and Research, 3(2).

Yangiboyev, I., & Qaldibayev, R. (2024). 5LP LINTER SAW CYLINDER. Modern Science and Research, 3(1), 1217-1221.

Кабилова, Д. С., Шеркулова, Н. Р., & Базарбаева, Г. Г. (2020). Реализация продукции-показатель оптимального планирования производства. In Исследования молодых ученых (pp. 15-17).

Sharipova, N. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING DESIGN SKILLS IN STUDENTS. Modern Science and Research, 2(12), 578-583.

Панжиев, О. Э., Исаева, Р. М., & Исмаилова, Л. (2023). ПОВЕРХНОСТНАЯ МОДИФИКАЦИЯ ВОЛОКНА КАК АСПЕКТ КОМФОРТА СВОЙСТВА ТКАНИ. RESEARCH AND EDUCATION, 2(3), 43-48.

Mavlonovna, S. N. (2023). TALABALARDA DIZAYNERLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(12), 380-386.

Madjidova, S. G., Rustambekovna, S. N., Ravshanovna, I. R., & Mardievna, I. R. (2023). Determination of Consumer Characteristics of Women's Clothing Made of Natural Silk. Journal of Advanced Zoology, 44.

Islamova, R. (2024). TALABA YOSHLARNI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O ‘ZIGA XOS USULLAR. Interpretation and researches.

Ravshanovna, I. R. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USULLARI, TUZILMASI VA MAZMUNI. Ravshanovna, I. R. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USULLARI, TUZILMASI VA MAZMUNI.

Абдугаффаров, Х. Ж., Сафоев, А. А., & Янгибоев, И. Б. (2017). Патент Респ. Узб. № FAP, 1141, 12.

Шарипова, Н., & Панджиев, А. (2024). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ДИЗАЙНЕРСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ. Interpretation and researches.

Mavlonovna, S. N. (2024). Pedagogical Approaches in Improving the Methodology for Developing Design Skills in Students. American Journal of Integrated STEM Education, 1(1), 36-42.

Ikromjon, Y. (2024). Drying Process of Seeded Cotton. American Journal of Integrated STEM Education, 1(1), 29-35.